

O'ZBEK NASRIDA URUSH TASVIRI

Primova Ro'zigul Abduqodirovna

Qarshi Iqtisodiyot va Pedagogika universiteti

O'zbek tili va adabiyoti kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek adabiyotida urush mavzusining yoritilishi hamda urush fojealarini tasvirlashda adiblarning mahorati to'grisida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Istiqlol davri adabiyoti, badiiy tasvir, urush mavzusi, badiiy talqin, poetik mahorat, qahramon ruhiyati.*

Аннотация. *В данной статье обсуждается освещение темы войны в современной узбекской литературе и мастерство писателей в описании военных трагедий. Узбекские авторы демонстрируют, как война влияет на человеческую психику, внутренние конфликты героев и их личный опыт в своих произведениях. В литературе эпохи независимости эта тема стала более глубокой, и писатели освещают жестокость войны и ее влияние на человека в реалистическом и поэтическом стилях.*

Ключевые слова: *Литература эпохи независимости, художественное изображение, тема войны, художественная интерпретация, поэтическое мастерство, психология героя*

Annotation. *This article discusses the representation of the theme of war in modern Uzbek literature and the skill of writers in depicting the tragedies of war. Uzbek authors illustrate how war affects human psyche, the inner struggles of heroes, and their personal experiences in their works. In the literature of the independence period, this theme has deepened, with writers portraying the brutality of war and its impact on individuals in both realistic and poetic styles.*

Keywords: *Literature of the independence period, artistic depiction*

theme of war, artistic interpretation, poetic skill, psychology of the hero

XX asrda I va II jahon urushlari ro'y berdi. Urushda shaxsan ishtirok etgan va bu urushni chetdan kuzatgan ko'plab yozuvchi va shoirlar kelajak avlodga bu voqealar haqida o'z asarlari orqali ro'y-rost xabar berishdi. Ammo urush deya atalmish balo faqatgina janglarda ishtirok etgan odamlar taqdirida emas, urush ortidagi onalar, bolalar, umuman, turli yoshdagi kishilar hayotiga soya tashladi.

Shu bilan bir qatorda XX asrda xalqimiz yana bir urushning guvohi bo'ldi. Bu afg'on urushi bo'lib, uning ta'siri ko'plab yurtidoshlarimizni ham chetlab o'tmadi. Bu yaqin o'tmishimiz voqeligining milliy adabiyotimizda badiiy talqin etilishi ko'proq mustaqillik

davrida kuzatildi. Ushbu mudhish urush tugaganidan qancha vaqt o'tmasin u qoldirgan asorat jangchilar ruhiyatiga ta'sir etmay qolmadi.

Urush mavzusidagi ayrim asarlarda aks etgan voqelikda urush manzaralari, ayni frontda bo'lib o'tgan voqealar, yana ayrimlarida esa urush ortidagi kishilarning kechmishi qalamga olingan, ya'ni front ortidagi holatlar tasviri yetakchilik qilgan. Yana ayrim asarlarda esa tasvir etilgan voqelik qahramonlarning xotiralarida jonlanadi. Ammo urush bilan bog'liq voqeliklarning aynan frontda yoki front ortida bo'lib o'tganligidan qat'i nazar uning asoratlari og'ir, fojeiy. Urush ishtirokchilarining qismatida bu asorat yaqqol aks etib turadi.

O'zbek adabiyotining taniqli namoyandalaridan biri Nabi Jaloliddin afg'on urush daxshatlarini o'z ko'zi bilan ko'rgan; shaxsan ishtirok etgan yozuvchilardandir. Shu boisdan bo'lsa kerak, adib ijodida urush mavzusiga murojaat qilinadi va ushbu mavzuning muayyan qirralari yoritiladi. Uning "Urush" asarida boshqa-boshqa vaqtlarda sodir bo'lgan, ikkinchi jahon urushi va afg'on urushida ishtirok etgan ikki shaxsning – chol hamda yigitning oshxonada tasodifan uchrashuvi haqida hikoya qilinadi. Asardan olingan ushbu parchaga diqqat qaratamiz:

"Chol pomidorni parraqlab bo'lib, ikki-uch to'rg'am nonni tikkasiga – chinnining chetiga suyab, ovqatiga soldi. Engashib xaltasidai eskiroq chorsiga o'ralgan bir narsa chiqarib, tizzasiga qo'ydi. Nigohi bilan atrofga nazar tashladi. Hamma o'zi bilan o'zi ovora, hech kimning u bilan ishi yo'q. Nihoyat ko'zlari ro'parasidagi yigitda to'xtadi. Yigit nigohini olib qochdi.

– Ayb qilmaysiz-da, jiyanim, – deya chol chorsining bir tomonini ochgandi, vino shishasining boshi ko'rindi.

Yigit haligi gap o'ziga aytilganini sezib, bir qimirlab qo'ydi-da:

– Bemalol, bemalol, otaxon! – dedi shoshib va nima qilishini bilmay, nihoyat xiyol tobi ko'tarilgan ovqatini ichishga tushdi.

Chol shishaning qopqog'ini ochib, ikkita piyolaga quydi. Yana yigitga qaradi. Ko'zlar to'qnashdi. Ularning ko'zlari bir-birlarinikiga juda o'xshardi –ikkisining ham qorachig'larida mislsiz g'am cho'kib yotgandek ularga qaragan kishi ham o'zini o'sha ko'zlarga kirib ketayotgandek his qiladi. Bu nigohlarda yana qandaydir ma'nolar ham yashiringandek.

Chol chap qo'li bilan sharob quyilgan bitta piyolani yigitning oldiga surdi. Uning uchta barmog'i yo'q edi. Yigit seskanib ketdi. Beixtiyor piyolani qo'liga oldi"¹⁴.

Asardan olingan yuqoridagi parchani tahlilga tortadigan bo'lsak, urush bialn bog'liq belgilar ushbu hikoyada yaqqol sezilib turadi. Bu ikki qahramon ikki urush ishtirokchisi bo'lishiga qaramay, ularning tashqi ko'rishi va xatti-harakatlarida yozuvchi bir-biriga yaqin bo'lgan tasvirlardan foydalanadi. Bu orqali urush tushunchasining ulkan fojiasini

¹⁴Nabi Jaloliddin Urush. / Internet sayti: ziyonet.com kutubxonasi, 2013.

insonlarning faqat tashqi ko‘rinishidagina emas, balki ham ruhiy, ham ma’naviy olamida zohir bo‘lishi haqidagi haqiqatni ifoda etishni maqsad qiladi. Hali o‘zi aytmasidan turib, cholning urushdagi ishtirokini taxmin qila olamiz. Urush qachon va qayerda bo‘lmasin inson ruhiyatiga bir xilda ta’sir qilishiga hikoya orqali yana bir bor guvoh bo‘lamiz. Ular bir-biriga begona ikki inson bo‘lsalar-da harakatlari, nigohlari hatto taqdirlari ham bir-biriga yaqinligini sezamiz. Yigit hali o‘ttiz birga kirgan bo‘lsa-da afg‘on urushi qalbida qoldirgan iztiroblari tufayli u o‘zini ro‘parasida o‘tirgan cho‘ldan-da keksaroq his qilishiga guvohi bo‘lamiz.

“– Bu yerda ichish mumkin emas. Qani, bu yoqqa...”

Chol va yigit baravariga militsionerga o‘g‘rilishdi. Juda xotirjam, hatto, ozgina bo‘lsin nafratsiz qarashdi.

Militsioner qariyb bir xil bo‘lgan bu ikki juft ko‘zga boqdi-yu, tebranib ketdi. U hech narsani o‘ylolmadi ham. Qo‘lidagi rezina tayog‘i yerga tushib ketgach, o‘ziga keldi-da, shoshib tayog‘ini olib, jo‘nab qoldi...

Bu nigohlar bir-birlariga dosh bera olardi, xolos”¹⁵. Ushbu parchada esa ikkilasining hech qanday nafratsiz birgina oddiy qarashi militsionerni dovdiratib qo‘yganini ko‘ramiz. Demak, xoh Ikkinchi jahon urushi, xoh Afg‘on urushi bo‘lsin uning dahshati inson qalbida hattoki uning qorachiqilarida qotib qolishi, urush ko‘rgan insonlar boshqalardan hatto nigohlari bilan farqlanishiga guvoh bo‘lamiz.

Demakki, yozuvchi Nabi Jaloliddin ushbu hikoyasi orqali urushning ikki qahramoni, aytish mumkinki, fojialar asoratidan ozurda bo‘lgan vakillari to‘g‘risida kitobxonga qiyosiy asosda xulosa chiqarish imkoniyatini yuzaga keltirishni ko‘zda tutadi. Bu orqali kitobxonning qanday urush bo‘lmasin, uning ta’siri ishtirokchilarni butun umr tark etmasligi, ularning qismatida fojeiy iz qoldirishi haqidagi xulosalarga kelishi kutiladi. Bu orqali o‘quvchida urushga nafrat uyg‘otiladi, tinchlikning qadriga yetish tuyg‘usi rivojlantiriladi.

Yozuvchining “O‘limning rangi” nomi bilan chop etilgan qissasida ham o‘tgan asrning 80-yillarida bo‘lib o‘tgan afg‘on urushi voqealari jonlantirilgan. Ushbu qissasi bilan u atoqli adibimiz Pirimqul Qodirovning e’tirofiga sazovor bo‘lgan. “O‘limning rangi” asari afg‘on urushiga bag‘ishlangan, real voqealarga asoslangan asardir. Asarni o‘qish jarayonida muallifning o‘zi aynan urush jarayonida ishtirok etganligi sezilib turadi.

Demak, urush mavzusining adib ijodida muhim o‘rin tutishi uning aynan urush jarayonlarini ko‘rganligi, u bilan bog‘liq fojeiy holatlarga bevosita ishtirok etganligi bilan bog‘lanadi. Shu boisdan ham adib ijodida urush mavzusidagi asarlarda aks etgan voqeliklar, manzaralar kitobxon ko‘z o‘ngida jonli, tabiiy tarzda namoyon bo‘ladi.

Janglarda nafaqat erkaklar, balki ular bilan bir safda yonma-yon, yelkama-yelka turib kurashgan ayollarimiz ham mavjud. Baxtiyor Abdug‘afurov o‘zining “Uzbechka yoxud

¹⁵O‘sha asar. / Internet sayti: ziyonet kutubxonasi, 2013.

Snayper qiz qissasi” asari orqali Ikkinchi jahon urushida jasorat ko’rsatgan ana shunday ayollardan birining jasorati haqida yoritgan. Mazkur asar voqealari aynan urush o’chog’ida yuz bergan voqelikka asoslanadi. Ayni balog’at yoshidagi qiz Jamila G’afurovaning bunday urush maydoniga tushib qolishi ham aslo tasodifan emasligini quyidagi parcha orqali kuzatishimiz mumkin.

“– Avval paxtani chiritmoqchi bo’lding, endi navbat kolxozning quylariga yetdimi!? Kimni aldayman, deyapsanlar!? O’zim ham qay go’rga yo’qoldi, deb yuruvdim-a! Shu yerga kochib kelgan ekansan-da, a! Topdimmi oxiri!

O’sha voqeadan so’ng rais baribir o’z ishini qildi – Jamilani ustidan yozib, sabotajda aybladi. Biroq Jamila g’oyib bo’ldi. Rais uni so’roqlatdi, ammo daragini topolmadi”¹⁶. Jamila dastlab front ortida mehnat qilsa-da, takror-takror tuhmatlarga uchrayvergan, jang maydonida ham unga oson kechmagan. Nemislar qo’liga asir tushadi, sotqinlikda ayblanadi, Sovet ittifoqi tomonidan o’limdan-da o’g’irroq jazoga mahkum qilingan bo’lsa-da, barchasiga sabr qiladi. Urush qanchalik dahshatli bo’lmasin, ko’ngillarni qotirmasin, ayol qalbining nozik hilqatligiga asarning ayrim o’rinlarida qayta-qayta guvoh bo’lamiz.

Umuman olganda, istiqlol davri nasrida badiiy talqin etilgan urush mavzusidagi asarlarda urush va inson taqdiri, vatanparvarlik, insoniylik, ma’naviy qadriyatlar masalalari aks etgan. Urush mavzusida yaratilgan nasr namunalarida yurtimiz tarixida bo’lib o’tgan qonli fojealar, Ikkinchi jahon urushi, Afg’on urushi fojealari ko’proq qalamga olingan. Ularda ishtirok etgan yurtdoshlarimizning badiiy olami yaratilgan.

Urush mavzusidagi asarlarning deyarli barchasida ijodkorlarning kitobxon qalbida urushga nafrat va tinchlikka muhabbat tuyg’usini oshirish maqsadi ko’zda tutiladi. Taraqqiyotning poydevori tinchlik, osoyishtalik va ahillikka bog’liqligini badiiy asoslab beriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Adabiyot nazariyasi. 2 tomlik. 1-tom. – Toshkent. Fan. 1978. – 416 b.
2. Baxtiyor Abdug’afurov Uzbechka. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – 288 b.
3. Boboev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – T., O’zbekiston, 2002. – 559 b.
4. Давронова Ш. Г. АБДУЛЛА ҚОДИРИЙ АНЪАНАЛАРИ ВА ИСТИҚЛОЛ ДАВРИ ЎЗБЕК РОМАНЧИЛИГИ //МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. – 2021. – Т. 4. – №. 1-2.
5. Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – T., O’ituvchi, 1986. – 407 b.
6. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. – T., O’zbekiston, 2011. – 243 b.

¹⁶Abdug’afurov B. Uzbechka.– Toshkent: Yangi asr avlodi, 2019. – B.19.

7. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. – T., O'qituvchi, 1999. – 544 b.
8. Karimov H. Ijod va iste'dod. Adabiy portretlar. – T., G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1985. – 125 b.
9. Mirzaev S. XX asr o'zbek adabiyoti, – T., Yangi asr avlodi, 2005. – 419 b.
10. Nabi Jaloliddin Urush. / Internet sayti: ziyonet kutubxonasi, 2013.
11. www.wikipedia.org
12. www.ziyouz.com
13. www.fayllar.org
14. www.saviya.uz

